

## ARAB TILIDA NISBIY SIFATLARNING QO'LLANILISHI

**Nutfilloyeva Marjona Ismat qizi**

O'zDJTU Sharq filologiyasi 1-kurs talabasi

marjonanutfilloyeva2221@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Erimmatova. Z.A**

O'zDJTU Sharq filologiyasi

fakulteti Arab tili kafedراسي o'qituvchisi

**Annotasiya.** Ushbu maqola arab tilidagi nisbiy sifatlarning grammatik strukturasi, ularning shakllanishi, qo'llanilishi va tilshunoslikdagi o'rnini tahlil qilingan. Maqolada nisbiy sifatlarning arab tilidagi o'ziga xos xususiyatlari, ularning turli vaziyatlarda, jumladan milliy, kasbiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda ishlatilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Nisbiy sifatlarning jins, son, va boshqa grammatik kategoriyalar bilan qanday moslashishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada nisbiy sifatlarning boshqa tillardagi o'xshashliklari bilan solishtirilgan holda, arab tilining murakkab grammatik tizimi va uning til madaniyati bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** nisbiy sifat, jins kategoriyasi, sifat turlari, aniqllovchi.

**التلخيص:** تتناول هذه المقالة الهيكل النحوي للصفات النسبية في اللغة العربية، وكيفية تشكيلها واستخدامها ودورها في علم اللغة. تُعرض المقالة خصائص الصفات النسبية الفريدة في اللغة العربية، واستخدامها في سياقات متنوعة، بما في ذلك المجالات الوطنية والمهنية والثقافية والاجتماعية. كما يتم مناقشة كيفية توافق الصفات النسبية مع فئات نحوية أخرى مثل الجنس والعدد، بالإضافة إلى فئات نحوية أخرى. علاوة على ذلك، تؤكد المقالة على العلاقة بين النظام النحوي المعقد للغة العربية وثقافتها اللغوية، من خلال مقارنة الصفات النسبية في اللغة العربية مع مثيلاتها في اللغات الأخرى.

**الكلمات المفتاحية:** الصفة النسبية، فئة الجنس، أنواع الصفات، التحديد.

**Аннотация.** Данная статья анализирует грамматическую структуру относительных прилагательных в арабском языке, их формирование, употребление и роль в лингвистике. В статье подробно рассматриваются особенности относительных прилагательных в арабском языке, их использование в различных контекстах, включая национальные, профессиональные, культурные и социальные сферы. Также рассматривается, как эти прилагательные согласуются с родом, числом и другими грамматическими категориями. В статье подчеркивается связь сложной грамматической системы арабского языка с его культурой и проводится сравнение с аналогичными конструкциями в других языках.

**Ключевые слова:** относительное прилагательное, категория рода, типы прилагательных, уточняющие слова.

**Annotation.** This article analyzes the grammatical structure of relative adjectives in the Arabic language, their formation, usage, and role in linguistics. The article provides detailed information on the unique characteristics of relative adjectives in Arabic, their use in various contexts, including national, professional, cultural, and social spheres. It also examines how these adjectives agree with gender,

number, and other grammatical categories. The article emphasizes the connection between the complex grammatical system of the Arabic language and its culture, drawing comparisons with similar constructions in other languages.

**Keywords:** relative adjective, gender category, types of adjectives, modifiers.

**Sifat** — bu grammatik kategoriyalardan biri bo'lib, u obyektning yoki hodisaning xususiyatlarini, holatini, miqdorini yoki sifatini tasvirlash uchun ishlatiladi. Sifatlar, odatda, ismlar (nominal so'zlar) bilan birga ishlatiladi va ularni aniqlash yoki tavsiflashga xizmat qiladi. O'zbek tilida sifatlar ko'pincha ismlar oldida keladi va ular o'sha ismning qandayligini yoki uning xususiyatlarini bildiradi. O'zbek tiliga qiyoslaydigan bo'lsak, arab tilida ham sifatlar ikkiga bo'linadi: asliy sifatlar va nisbiy sifatlar.

**Nisbiy sifat** — bu bir predmetning boshqa bir predmetga nisbatan qiyoslanishini, shaxs va narsalarning biror joyga mansubligini, ob'ektning materialini, kelib chiqishini aniqlab keladi. Misol uchun, *arablik qiz* (البنت العربية) bunda qizning qayerga mansub ekanligini nazarda tutiladi. *Kumush qadah* (كأس فضي) predmetning qaysi materialdan ekanligini bilishimiz mumkin.

Nisbiy sifat yasashda ham aniqlovchi va aniqlanmish holatiga, jinsiga, soniga qaraladi. Nisbiy sifatning muzakkari, asosan, so'z oxiridagi " <sup>هـ</sup> (un) qo'shimchasi olib tashlanadi va oxiriga " <sup>ي</sup> (- iyyun) qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan:

Ilm (علم) → Ilmiy (علمي)

Kitob (كتاب) → Kitobiy (كتابي)

Vatan (وطن) → Vatanga oid (وطني)

Maktab (مدرسة) → Maktabga oid (مدرسي)

Muannas jinsdagi nisbiy sifat yasash uchun esa so'z oxiridagi muannaslik belgisi bo'lgan "ta marbuta" ة (-atun) belgisi olib tashlanadi va bunda ham so'z oxirida " <sup>ي</sup> qo'shimchasi qo'shib qo'yiladi va ta marbuta qo'shimchasi so'z oxirida qo'shib qo'yiladi. Masalan:

1. Hayot (حياة) → Hayotiy (حياتي)

Hayat (hayot) so'zidan hayotiy (hayotga oid, muannas jinsida) sifatini yasash.

Misol: تجربة حياتية (hayotiy tajriba).

2. Tibb (طب) → Tibbiy (طبي)

Tibb (tibbiyot) so'zidan tibbiy (tibbiyotga oid, muannas jinsida) sifatini yasash.

Misol: دراسة طبية (tibbiy tadqiqot).

3. Ism (اسم) → Ismga oid (اسمي)

Ism (ism) so'zidan ismiy (ismga oid, muannas jinsida) sifatini yasash.

Misol: وثيقة إسمية (isimli hujjat).

Ammo ba'zan shunday so'zlar borki, ular bu qoidadan birmuncha tafovut qiladi:

**1 / yoki ي harfi bilan tugagan otlardan nisbiy sifat hosil bo'lganida <sup>ي</sup> qo'shimchasidan oldingi / yoki ي harflari o'ga aylanadi:**

دُنْيَا → دُنْيَوِي dunyoviy, dunyoga oid.

آسِيَا → آسِيَوِي osiyolik

**2. Ayrim so'zlarda esa oldingi / (alif) tushib qoladi:**

فرنْسَا (Fransiya) → فرنْسِي (Fransuz, Fransiyaga oid)

أوروبا (Yevropa) → أوروبي (Yevropalik, Yevropaga oid)

**3. Ayrim otlarda nisbiy sifat hosil bo'lganida, so'zning vazni ham bir oz o'zgaradi:**

a) ilm (علم) → Ilmiy (علمي)

“Ilm” so'zidan “ilmiy” sifatini hosil qilish.

b) madaniyat (ثقافة) → Madaniy (ثقافي)

“Madaniyat” so'zidan “madaniy” sifatini hosil qilish.

c) shahar (مدينة) → Shaharli (مديني)

“Shahar” so'zidan “shaharli” sifatini hosil qilish.

Bu o'zgarish, asosan, so'zning morfologiyasiga va grammatik tuzilishga bog'liq. Quyida bunday o'zgarishlarga misollar keltirilgan:

1. مدرسة (maktab) → مدرسي (maktabiy)

2. وطن (vatan) → وطني (vataniy)

3. قرية (qishloq) → قروي (qishloqiy)

Bu holatda, nisbiy sifat hosil bo'lishi bilan so'zning vazni o'zgarib, sifatlarning ma'nosi ham aniqroq bo'ladi.

**4. Ikki o'zak undoshdan iborat ayrim otlardan nisbiy sifat hosil qilinganda, sharfi orttiriladi:**

شفعة (shafatun - lab) → شفوي (shafaviyyun - og'zaki)

لغة (lug'otun - til) → لغوي (lug'oviyyun - tilga oid)

سنة (sanatun - yil) → سنوي (sanaviyyun - yilga oid)

Ba'zan siniq ko'pliklardan ham nisbiy sifatlar yasashimiz mumkin:

دولة (duvaliyyun - xalqaro) → دولي (duvaliyyun - xalqaro)

مدينة (madaniyyun - shaharlik) → مدني (madaniyyun - shaharlik)

قرية (quroviyyun - qishloqga oid) → قروي (quroviyyun - qishloqga oid)

**Nisbiy Sifatlar va ularning tilshunoslikdagi o'rni:** Arab tilidagi nisbiy sifatlar, nafaqat grammatik tizimni to'ldiradi, balki ular tilshunoslikda katta ahamiyatga ega. Arab tilining nisbiy sifat qo'shimchalari boshqa tillardagi sifatlar bilan taqqoslaganda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Arab tilida nisbiy sifatlar o'zgacha morfologik tuzilishga ega bo'lib, ular ko'plab ismlar va masdarlar yordamida shakllanadi. Bu nisbiy sifatlar nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy kontekstda ham ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, arab tilidagi nisbiy sifatlar tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat so'zlarni aniqroq ta'riflash, balki madaniyatlar va jamiyatlar o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Nisbiy sifatlar arab tilining grammatik tizimining ajralmas qismi bo'lib, ko'plab so'zlarning shakllanishi va ularning ta'riflashdagi roli jihatidan tilning boy va murakkab tuzilishini ko'rsatadi. Ularning qo'llanilishi tilni yanada boyitadi va arab tilini o'rganishda chuqur bilim olishni ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024.

3. Maqsudov, A. Arab Harflari va Ularning Tashkiliy Strukturasi. – Toshkent, 2020.
4. [www.arabic.uz](http://www.arabic.uz)
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)